

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo‘yicha prorektor

M.R. Qodirxonov
M.R. Qodirxonov
2025-yil

**13.00.01 – “PEDAGOGIKA NAZARIYASI PEDAGOGIK
TA’LIMOTLAR TARIXI”**

**ixtisosligi bo‘yicha stajyor-tadqiqotchi, tayanch
doktorantura (PhD), doktorantura (DSc) talabgorlari
uchun kirish imtihoni**

DASTURI VA BAHOLASH MEZONI

ANNOTATSIYA

Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirining 2017 yil 14 sentyabrdagi “ Vazirlik tasarrufidagi oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida oliy malakali ilmiy va ilmiy –pedagog kadrlar tayyorlash rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 660-sonli buyrug‘iga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasinng 2017 yil 22 maydagi “ Oliy uquv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim to‘g‘risida” Nizom talablariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standartiga asoslangan holda, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun talablariga mos ravishda 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo‘yicha talabgorlar uchun tuzildi.

Tuzuvchilar:

p. f.d., prof. S.X.Abdullayev

p. f.n., dots. A.X.Sattarov

Taqrizchilar:

PhD, dots,S.U.Sulaymonova

p.f.d., prof. O‘.M.Asqarova

Dastur va baholash mezonlari Namangan davlat pedagogika instituti kengashining 2025-yil 29- oktyabrdagi 3 - sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

**Boshlang'ich ta'lim innovatsiyalari
kafedrası mudiri:**

F.Z.Xusanova

**Kreativ pedagogika va psixologiya
kafedrası mudiri**

S.U.Sulaymonova

**Kelishildi:
Ilmiy tadqiqot va ilmiy pedagogik
kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i:**

J.Yuldashev

KIRISH

Ushbu dastur: pedagogika fanlarning metodologiyasi; maxsus pedagogika; pedagogika nazariyasi va tarixi, tarbiyaviy ishlar metodikasi, yunogogika, ijtimoiy pedagogika, xalq pedagogikasi fanlarining na'munaviy dasturlari asosida tuzildi.

Dasturning maqsadi – izlanuvchilarni o'qitishdan maqsad talabgorlarni pedagogika o'qitish metodologiyasiga oid bilim ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish.

Dasturning vazifasi -tadqiqotchilarni pedagogik fanni o'qitish metodikasining nazariy asoslariga oid bilimlar bilan qurollantirish; metodik jixatdan pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish uchun zarur ko'nikmalarni egallash; pedagogik fanlarni o'ziga xosliklarni xisobga olgan xolda ta'lim va tarbiyaning zamonaviy usullarini texnologiyalarni keng doirada qullay olishga yo'naltirish pedagogik faoliyatini amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikka tayyorlashni shakillantirishdan iborat. Fan bo'yicha talabalarni bilim, ko'nikma malakasiga quyiladigan talablar.

Dastur bo'yicha talabgorlarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar: :

“Pedagogik fanlarini o'qitish metodikasi” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- pedagogik fanlarini o'qitish metodikasining predmeti, maqsad va vazifalari; ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va strategiyasi; pedagogik fanlarning mazmuni va ilmiy asoslari, uning kategoriya va tamoyillari; o'quv jarayonini tashkil etish shakllari va metodlariga qo'yilayotgan zamonaviy talablar; pedagogik fanlarini o'qitish metodlarining tasnifi va asosiy jihatlari; pedagogika kursini tuzish uchun asos bo'lgan tamoyillar; pedagogika fanlarini o'qitish metodikasining qonuniyatlari; o'qitish tamoyillari; dars o'quv faoliyatini tashkil etish sharti sifatida; o'quv faoliyatini tashkil etish shakllari; ma'ruza mashg'uloti va uning mazmuni; ma'ruza o'qishga qo'yiladigan talablar; seminar mashg'ulotining mohiyati va turlari; o'qitish metodikasi **tasavvurga ega bo'lishi**;
- pedagogik fanlar mazmunini tanlab olish tamoyil va mezonlarini; pedagogik fanlar mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlarini; pedagogik fanlarini o'qitish metodlari tasnifini; o'qitishning texnik vositalari va axborot texnologiyalarda amaliy ishlashni; zamonaviy pedagogik fan yutuqlari va ilg'or pedagogik tajribalardan amaliy foydalanib, mustaqil bilim olishni; o'quvchilarni shaxsiy va yosh xususiyatlarini hisobga olish, auditoriya bilan o'zaro aloqalar taktikasini o'rnatish va psixologik to'g'ri munosabatlarni boshqarishni bilish; ta'lim standartlarining yangi talablari va o'zining ehtiyojlari bilan bog'liqlikda o'qitish va ta'lim olganlikni tashxis etishning turli usul va vositalaridan samarali foydalanish hamda metodik fanlarni o'rganishda o'quv mashg'ulotlari taksonomiyasini; pedagogika fanlarini o'qitishda ko'rgazmali va amaliy metodlarni; o'qitishning ta'limiy metodlarini; o'qitishning interfaol usullarini; dasturlashtirilgan ta'limni; pedagogika va metodik fanlardan bilimlarni nazorat qilish va baholashni tashkil qilishni **bilishi va ulardan foydalana olishi**; bilimni diagnostika hamda nazorat qilishning turli vositalari va usullaridan samarali foydalanish; ta'lim standartlarining yangi talablariga mos ravishda mustaqil yangi o'qitish usullarini yaratish; ilg'or pedagogik tajribalar va

pedagogika fanining zamonaviy yutuqlaridan foydalangan holda ta'lim berish; individual, shaxsiy va yoshga oid o'ziga xosliklarni hisobga olgan holda auditoriya bilan muloqot va o'zaro harakatni tashkil etish; psixologiya fanlarini o'qitishda nazorat turlari, baholash tamoyillarini qo'llay olish; pedagogika va psixologiyani o'qitishda bilimlarini nazorat qilishda amaliy topshiriqlarni bajarish; o'rta maxsus va oliy ta'limda pedagogik fanlarni o'qitishning o'ziga xosligi dars jarayoniga metodlarni qo'llash, talabalarni mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish; pedagogika va metodik fanlarni o'qitishda bilimlarni nazorat qilish shakllarini qo'llash **ko'nikmalariga ega bo'lishi;**

Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy (falsafa (etika, estetika, mantiq)), matematik va tabiiy (yosh fiziologiyasi va gigiena), umum kasbiy (pedagogika nazariyasi, pedagogika fanlarini o'qitish metodikasi, pedagogik mahorat) fanlari bilan o'zaro aloqada olib boriladi.

Ta'lim jarayonida pedagog shaxsi ta'lim amaliyotida va pedagogik fikr tarixida pedagogning mahorati masalalari. Pedagogik qobiliyat. Pedagogning kommunikativ qobiliyati. Muloqot madaniyati va ta'lim oluvchining psixologik faoliyati. Pedagogik texnika va uni shakllantirish usullari. O'quv va tarbiya jarayonida pedagog mahorati. Pedagog mehnatini tashkil etishning ilmiy asoslari. Pedagogik tajriba orttirish tizimi, tadqiqot metodlari, hozirgi ta'lim muassasalarida ilg'or pedagogik g'oyalar, tajribalarning taraqqiyoti va uni hayotga tatbiq etish yo'llari. Pedagogik mahorat taraqqiyot tarixi. Mustaqil malaka oshirish va o'z-o'zini nazorat qilish. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik muloqot mahorati, pedagogik tajriba va uni tatbiq etish, pedagog faoliyatida sharqona muomala madaniyati asoslari. Pedagogik texnika va uning komponentlari.

Ta'lim jarayoni mohiyati. O'rganish bilish faolligi shakli sifatida. O'qitish va o'rganish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi. Sharq va G'arb mutafakkirlarining gnoseologik g'oyalari ta'lim jarayoni asosi sifatida. O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi. Ta'lim tamoyillari va qonuniyatlari yoritib boriladi.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI

fani bo'yicha

O'qituvchilik kasbining jamiyatda tutgan o'rni. Pedagogikaning nazariy asoslari. Umumiy pedagogik jarayonning nazariy asoslari. Didaktika (ta'lim nazariyasi): ta'lim jarayoni, qonuniyatlari, tamoyillari, mazmuni, ta'lim metodlari va vositalari, ta'limni tashkil etish shakllari, ta'lim olganlikni tashxis etish. Tarbiya nazariyasi: tarbiya jarayoni, qonuniyatlari, tamoyillari, tarbiyaning umumiy metodlari, tarbiya turlari: maqsadi va vazifalari, mazmuni va mohiyati, shakl, metod va vositalari. Ta'lim muassasasini boshqarish: O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta'lim tizimi va turlari, ta'lim muassasasi menejmenti, ta'limni boshqarish tamoyillari, ta'limning ichki

boshqaruvi. Korreksion pedagogika asoslari: korreksion pedagogikaning shakllanishi va rivojlanishi, korreksion pedagogikaning sohalari.

PEDAGOGIKA TARIXI

fani bo'yicha

Eng qadimgi yodgorliklarda inson tarbiyasiga oid fikrlar. Qadimgi davrlarda tarbiya va uning kishilarning mehnat faoliyati bilan bog'liqligi. Ibtidoiy odamlar hayotida tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Folklor namunalarida og'zaki ta'lim usullarining ifodalanishi. Qadimgi davlatlar: Sug'diyona, Baqtriya va Xorazmda ta'lim-tarbiyaning rivojlanishi. «Avesto»-eng qadimgi ma'rifiy yodgorlik namunasi. O'rxun-Enasoy obidalari, ularning ma'rifiy ahamiyati. Movaraunnahrda mustaqil davlatlarning tashkil topishi va ta'lim-tarbiya taraqqiyoti.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimi va maktablarda ta'lim-tarbiya amaliyoti. Jahon mamlakatlaridagi zamonaviy-ijtimoiy bilimlar tizimida pedagogika fani va uning asosiy oqimlari. AQSh, Yaponiya, Germaniya, Turkiya, Janubiy Koreyada ta'lim va tarbiya tizimi, mazmuni va taraqqiyoti.

YUNOGOGIKA

fani bo'yicha

Yunogogikaning mohiyati, mazmuni, yoshlar taarbiyasi va ularni rivojlantirishdagi o'rni, ijtimoiy-pedagogik faoliyat shakl va metodlari, ijtimoiy pedagogik faoliyat tashkil etishda o'quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olish

XALQ PEDAGOGIKASI

fani bo'yicha

Xalq pedagogikasi fanining maqsadi, vazifalari, mazmuni, xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlarini o'quv-tarbiyaviy jarayonga tadbiq etish, xalq pedagogikasida oila va oilaviy tarbiyaning aks etishi, xalq pedagogikasida yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari, xalq pedagogikasi va o'zbek xalq og'zaki ijodi, xalq pedagogikasi va xalq og'zaki ijodida dostonlar, xalq pedagogikasida milliy urf-odatlar, an'analar, udumlar, marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o'rni, xalq pedagogikasida diniy ta'limotlar, xalq pedagogikasida xalq amaliy san'ati va madaniyatining o'rni, o'zbek xalqining muomala madaniyati, ahloqiy me'yorlari, turmush kechirish tartib-qoidalarini o'rganishning tarbiyaviy ahamiyati.

IJTIMOIIY PEDAGOGIKA

fani bo'yicha

Ijtimoiy pedagogika ijtimoiy zaruriyat sifatida. Uning asosiy muammolari. Ijtimoiy pedagogikaning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti. Ijtimoiy

pedagogika asoslari. Ijtimoiy pedagogika alohida fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida. Bolaning sotsiumda rivojlanishi. Shaxsning ijtimoiylashuvi. Odob-axloq hayotiy me'yorlar sifatida. Ijtimoiy pedagogikada "me'yordan og'ish" tushunchasi. Ijtimoiy pedagogik jarayon. Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-pedagogik an'analari. Jamiyatning milliy mafkuraviy ongilligi ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida. Ijtimoiy pedagog va uning kasbiy faoliyati. Ijtimoiy pedagog ta'lim tizimida. Ijtimoiy pedagogning bolalar va o'smirlar orasidagi reabilitatsion xizmati modeli va mexanizmi.

Talabgorlar uchun umumiy savollar

1. Didaktikaning asosiy tushunchalari, mazmuni, maqsadi va vazifalari.
2. Ta'limni tashkil etishning noan'anaviy shakllari; o'quv dialogi, munozara, didaktik (ishbop, rolli) o'yinlar, trening, debat, matbuot-konferentsiyasi, o'tkir zehnlilar klubi, va boshqalar.
3. Fuqarolik tarbiyasi. Fuqarolik madaniyati
4. Elektron pedagogika asoslari, uning ahamiyati
5. Oila, maktab, mahalla xamkorligi.
6. Tarbiya metodlari va ularning turlari
7. Pedagogik diagnostika fanining maqsad va vazifalari
8. Abdullo Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarining tarbiyaviy ahamiyati.
9. Pedagogika fani tizimi va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi
10. Estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari
11. Pedagogik faoliyatda pedagogik qobiliyatlarning o'rni
12. Ta'lim metodlari va ularning turlari
13. Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari
14. Iqtisodiy tarbiya. O'quvchilarda tejamkorlikni tarbiyalash
15. Ta'limni tashkil etishning an'anaviy shakli. Dars turlari. Darsning tuzilishi, unga qo'yilgan talablar
16. Abu Ali Ibn Sinoning pedagogik qarashlar
17. Xalq pedagogikaci metodlari (duo, qarg'ish, olqash, qoralash, oq yo'l tilash, na'muna ko'rsatish)
18. Yan Amos Komenskiyning "Buyuk didaktika" asari va ahamiyati
19. Ta'lim vositalari va turlari
20. Shaxsni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar (ijtimoiy muxit, irsiyat, ta'lim-tarbiya)
21. Shaxsni shakllanishida faoliyatning (o'yin, o'qish, mehnat) o'rni
22. O'qituvchining kommunikativ qobiliyati

23. Mehnat tarbiyasi. O'quvchilarda mehnatga munosabatni tarbiyalash.
24. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanining rivojlanish imkoniyatlari.
Korreksion pedagogika va inkliyziv ta'lim asoslari.
25. Axloqiy tarbiya.O'quvchilarni ma'naviy axloqiy tarbiyalash
26. "Avesto" eng qadimgi ma'rifiy yodgorlik
27. O'qituvchining nutq qobiliyati va uni rivojlantirish
28. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalari
29. Ekologik tarbiya .O'quvchilarda tabiatga ijobiy munosabtini tarbiyalash
30. Temuriylar davrida ilm-fan, ta'lim-tarbiyaning ravnaq topishi
31. Ta'limning zamonaviy metodlari
32. Oila pedagogikasi fanining maqsad va vazifalari
33. Mirzo Ulug'bekning pedagogik g'oyalari va ma'rifatparvarlik xizmatlari
34. Ta'limda ko'rsatmalilik ko'rsatmalilikdan foydalanish
35. Tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi tamoyillari
36. Tarbiya jarayonining mazmuni va tarbiyalanganlik mezonlari
37. Tarbiyaning insonparvarlik tamoyillari
38. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning muhim elementi
39. Oila tarbiyasining xuquqiy asoslari
40. Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari va ularni ta'lim jarayonida qo'llashning didaktik imkoniyatlari.
41. Pedagogik mahorat asoslari fanining vujudga kelishi tarixi
42. Tarbiyaning ijtimoiy yo'nalganligi va yaxlitligi: tarbiyaning ijtimoiy hayot va mehnat bilan birligi. Tarbiyaning insonparvarlik printsiplari
43. Isoqxon Ibratning pedagogik qarashlari
44. Tarbiyaviy ishlarni uyushtirish tamoyillari va usullari
45. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash
46. Pedagogik a tarixi fanining maqsad va vazifalari
47. O'qituvchi faoliyatida diqqatni to'g'ri taqsimlay olish qobiliyati
48. Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari
49. Ta'limning qonuniyatlari va qoidalari
50. O'zini-o'zi tarbiyalash va o'z ustida ishlash
51. Mustaqil ,ijodiy, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yo'llari
52. Talabalar bilimini baholash mezonlari
53. Ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, tamoyillari
54. Aqliy tarbiya . Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish
55. Maxsus pedagogikaning o'ziga xos xususiyatlari
56. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida ta'lim-tarbiya masalalari
57. Didaktikaning asosiy printsiplari (tamoyillari)

58. Jismoniy tarbiya.
59. Androgogika - kattalar ta'limi .Uning o'ziga xos xususiyatlari
60. Ta'limning ma'ruza-seminar tizimi
61. Ta'lim vositalari va ularning funktsiyalari
62. Pedagogik takt va odob-axloq. Pedagogik nazokat
63. Test turlari va test tuzishga qo'yilgan talablar
64. Amaliy metodlarning turlari
65. Fandan metodik ko'rsatmalar tayyorlash tartibi
66. Mustaqil fikrlashni tashkil etish
67. Sinf-dars tizimi
68. Tadqiqot ishlarida umumiy xulosa va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish tartibi
69. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari va tushunchalari: tarbiya, ta'lim, ma'lumot, bilim, ko'nikma, malaka, rivojlanish.
70. Ekspert baholash (lot. "expertus" – tajribasiga ko'ra biladigan, tajribali, sinalgan, tekshirilgan) metodi
71. Talabalar BKMni nazorat qilish va tashxislash
72. Pedagogik jarayonlarni tadqiq qilishning o'ziga xos xususiyatlari.
73. Shaxsning rivojlanganlik darajasi uning fiziologik, ruhiy va intellektual o'sishini ta'minlovchi faoliyat- sifatida
74. Bolalarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish va o'tkazish metodikasi
75. O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish turlari, shakl va metodlari
76. Pedagogik amaliyotni tashkil etish va unga raxbarlik
77. Pedagogik fanlar mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar
78. O'quv adabiyotlar kontsepsiyasi
79. O'quv fanlari yuzasidan nazorat ishilarini tashkil etish va o'tkazish
80. O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish
81. Ta'lim maqsadlari: Ta'limiy maqsad, Tarbiyaviy maqsad, Rivojantiruvchi maqsad
82. Talabalarning bilimlarni o'zlashtirish darajalari.
83. Maslahat (konsultatsiya)ni –tashkil etish qoidalari
84. Ta'lim qonuniyatlari va qoidalari
85. O'zini-o'zi tarbiyalash va o'z ustida ishlash
86. Ma'ruza mashg'ulotini tashkil etish va o'tkazishga qo'yiladigan talablar
87. O'quv topshiriqlari, ish qog'ozlari
88. Axborot texnologiyalari: ta'limiy va nazorat qiluvchi dasturlar.
89. Ta'limning jamoaviy va guruhiiy texnologiyasi.
90. Bolaning intellektual qobiliyatini rivojlantirish .
91. Tanqidiy fikrlash asoslari.

92. O'qituvchilik kasbining ijtimoiy- tarixiy rivoji va jamiyatdagi o'rni.
93. Bo'lajak o'qituvchi professiogrammasi
94. Pedagogik qobiliyat haqida tushuncha.
95. Pedagogik qobiliyatlar klassifikatsiyasi.
96. Yuksak saviyadagi bilim va madaniyat
97. Pedagogik qobiliyatlar.
98. Didaktik qobiliyatlar.
99. Akademik qobiliyatlar.
100. Pertseptiv qobiliyatlar.
101. Nutq qobiliyatlari.
102. Tashkilotchilik qobiliyati.
103. Avtoritar qobiliyatlar.
104. Pedagogik muloqot haqida tushuncha.
105. Pedagogik muloqotning asosiy funksiyasi (tarkibi)
106. Muloqot turlari va madaniyati.
107. O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi.
108. Pedagogik takt haqida umumiy tushuncha.
109. Pedagogik taktni amalga oshirish shartlari
110. Pedagogik kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish
111. Pedagogning tashqi ko'rinishi va uni maqsadga yo'nalganligi.
112. Dars berish faoliyatining o'ziga xosligi.
113. Darsdagi faoliyatning turli-tumanligi haqida.
114. Darsda mustaqil ishni tashkil qilish.
115. Pedagogik faoliyat madaniyati.
116. Darsning hissiy-intelektual ohangini yaratish.
117. Darsda o'z-o'zini nazorat qilish.
118. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish haqida tushuncha, mohiyati.
119. Vaqtdan unumli foydalanish, o'qituvchiniig bo'sh vaqti.
120. O'qituvchining kun tartibi va ish joyi.
121. Tarixiy manbaalarda yoshlar masalalarining yoritilishi.
122. G'arb uyg'onish davrida yoshlar muammolarining o'rganilishi.
123. Sharq uyg'onish davri mutafakkirlari asarlarida yunogogika fanining rivojlanishi. Yoshlar bilan ishlash bo'yicha kasbiy-pedagogik faoliyat va uning o'ziga xosliklari.
124. Yoshlar bilan ishlash tashkilotchisining umumiy tushunchalar.
125. Yoshlar tashkilotchisining shaxs shakllanishiga ta'siri.
126. Yoshlar tashkilotchisining faoliyatini tashkil etish tamoyillari.
127. Yoshlarni ijtimoiy pedagogik qo'llab-quvvatlash – pedagogik muammo sifatida. Yoshlar hayotidagi voqea xodisalarni tasniflash.

128. Ijtimoiy pedagogik qo'llab-quvvatlash funksiyalari.
129. Ijtimoiy pedagogik qo'llab-quvvatlash jarayonini algoritmik ketma-ketligi.
130. Ijtimoiy muommolarning asosiy vazifasi nima?
131. Ijtimoiy pedagogning ob'ekti nimalar hisoblanadi?
132. Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiya fanining predmeti nima?
133. Yoshlarni liderlik faoliyatga tayyorlash pedagogik-psixologik muammo sifatida. Liderlik fenomeni.
134. Yoshlarni liderlikka tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash jarayoni tuzilishi.
135. Lider va tashkilotchi yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash printsiplari.
136. Yoshlarning o'z-o'zini boshqarish organlarining asosiy xarakteristikasi.
137. Yoshlar o'z-o'zini boqarish – mustaqil hayotga tayyorlashning turi ekanligi. Yoshlar o'z-o'zini boqarish tizimini takomillashtirish.
138. Ijtimoiy tarbiya tushunchasi. Ijtimoiy tarbiyaning maqsad va vazifalari.
139. «Tarbiyasi qiyin» yoki «tarbiyasi og'ir» bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat mazmuni va turlari.
140. Ijtimoiy pedagogik ta'lim tizimidagi tushunchalar
141. Ijtimoiy hayotda yoshlarni tarbiyasigata'sir etuvchi omillar
142. Oila tashxisini amalga oshirish uchun metodlar
143. Asotsial axloqning mazmun-mohiyati, uni bartaraf etish.
144. Xalq pedagogikasi manbaalarida hadislarining o'rni.
145. Hadis ilmiyning paydo bo'lishi.
146. Hadislarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati.
147. Dostonlarning xalq pedagogikasidagi o'rni.
148. Dostonlarning turlar haqida.
149. Afsonalar tarixiy voqealar asosi sifatida.
150. Afsonalarning tarbiyaviy ahamiyati.

TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRUVCHILARNI MUTAXASSISLIK FANIDAN IMTIHON TARTIBI VA BAHOLASH MEZONI

Mutaxassislik fanidan imtihon ikki bosqichda amalga oshiriladi,
maksimal 100 ball:

- 1-bosqich – Mutaxassislik fanidan suhbat – 50 ball.
- 2-bosqich- Mutaxassislik fanidan yozma ish – 50 ball,

Nogironligi bo'lgan shahslar uchun (ko'zi, eshtish va nutqida nuqsoni borlar)
Suhbat yoki yozma bo'yicha baholash mezonlari: Maksimal – 100 ball.

Izoh: Barcha sohalar, shu jumladan, fizika-matematika va texnika fanlari bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga qabul qilishda tegishli fan yo'nalishlarida milliy sertifikatga ega bo'lgan talabgor mutaxassislik fani bo'yicha imtihondan ozod etiladi va unga mutaxassislik fani uchun belgilangan maksimal ball beriladi.

Talabgorlar suhbat va yozma ish natijasida olgan ballari yig'indisi bilan tanlovda ishtirok etadi va saralash ballar ketma-ketligi asosida amalga oshiriladi. Talabgorlar bilimini yozma ish ko'rinishida baholash uchun 3 ta savoldan iborat ko'p variantli biletlar tuziladi. Har bir savol uchun tegishli ballar qo'yiladi. Birinchi va ikkinchi savollarga javoblar 15 balldan, uchinchi savolga javob 20 ball bilan baholanadi.

1. Suhbat bo'yicha baholash mezonlari: **Maksimal – 50 ball.**

Ballar oralig'i	Mezonlar talablari
43 – 50 ballar	Mutaxassislik fanidan berilgan savolni nazariy va amaliy jihatlarini to'g'ri va atroflicha to'liq yoritca, savollarni olib borayotgan yoki rejalashtirayotgan ilmiy-tadqiqot ishiga bog'liqligini ijodiy va ilmiy yondashuv asosida to'liq ifodalab, javoblarida mustaqil ilmiy fikr-mulohaza va xulosalari mavjud bo'lsa.
34 – 43 ballar	Mutaxassislik fanidan berilgan savolni nazariy va amaliy jihatlarini to'g'ri, lekin to'liq yoritishda axborotlar yetarli bo'lmasa, savollarni olib borayotgan yoki rejalashtirayotgan ilmiy-tadqiqot ishiga bog'liqligini ijodiy va ilmiy yondashuv asosida to'liq ifodalashda bog'liqlik jihatlarini yetarli darajada keltirmasa, mustaqil ilmiy fikr-mulohaza va xulosalarni bayon etishda kamchiliklarga yo'l qo'ysa.
27 – 34 ballar	Mutaxassislik fanidan berilgan savolni nazariy va amaliy jihatlarini qisman yoritca, savollarni olib borayotgan yoki rejalashtirayotgan ilmiy-tadqiqot ishiga bog'liqligini ijodiy va ilmiy yondashuv asosida to'liq ifodalashda yetarlicha ma'lumot bermasa, mustaqil ilmiy fikr-mulohaza yuritishda axborotlar yetarli bo'lmasa.
0 – 27 ballar	Mutaxassislik fanidan berilgan savolni nazariy va amaliy jihatlarini yorita olmasa yoki asossiz ma'lumotlar bilan cheklansa, olib borayotgan yoki rejalashtirayotgan ilmiy-tadqiqot ishi mavjud bo'lmasa yoki savollarni tadqiqot ishi bilan bog'lay olmasa, mustaqil ilmiy fikr-mulohaza yurita olmasa.

2. Yozma ish bo'yicha baholash mezonlari: **Maksimal – 50 ball.**

1-savol (maks – 15 ball)	2-savol (maks – 15 ball)	3-savol (maks – 20 ball)	Mezon uchun talablar
13 – 15 ball	13 – 15 ball	17 – 20 ball	Savolga nazariy jihatdan to'g'ri va to'liq ma'lumotlar bilan ijodiy yondoshgan holda, ilmiy qarashlar bilan ifoda etilgan javob keltirilgan hamda mustaqil fikr-mulohazalar bilan boyitilgan bo'lsa.
10–13 ball	10–13 ball	14 – 17 ball	Savolga nazariy jihatdan to'g'ri va ijodiy yondoshgan holda ilmiy qarashlar bilan ifodalangan, lekin ularning mohiyatini, xususiyatini, u bilan bog'liq tushunchalarni hamda ta'sir etuvchi omillarni bayon etishdagi ma'lumotlar yetarlicha bo'lmasa, mustaqil fikr-mulohazalar yuzaki axborotlar bilan cheklangan bo'lsa.
8–10 ball	8–10 ball	11 – 14 ball	Savol mohiyatini yuzaki (yoki qisman) ochib bersa, savol bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar haqidagi ma'lumotlar yoritilmagan bo'lsa yoki noto'g'ri yoritilsa, shuningdek, shaxsiy fikr-mulohazalar bayon etilmagan bo'lsa.
0–8 ball	0–8 ball	0-11 ball	Savolga nazariy jihatdan javob bermasa yoki asossiz, tegishli bo'lmagan ma'lumotlar bilan ifodalagan bo'lsa hamda ularga yetarlicha izoh bermagan bo'lsa.

3.Nogironligi bo'lgan shahslar uchun mutaxassislik bo'yicha Suhbat (ko'zi ojizlar uchun) va Yozma ish (eshitish yoki nutqida nuqsoni borlar uchun) imtihonini baholash mezonlari: Maksimal – 100 ball

Ushbu toifadagi talabgorlarga 5 ta savoldan iborat bilet tayyorlanadi. Har-bir savolga maksimal 20 ball qo'yiladi va quyidagi mezonda baholanadi.

5-savol (maks – 20 ball)	Mezon uchun talablar
17 – 20 ball	Savolga nazariy jihatdan to'g'ri va to'liq ma'lumotlar bilan ijodiy yondoshgan holda, ilmiy qarashlar bilan ifoda etilgan javob keltirilgan hamda mustaqil fikr-mulohazalar bilan boyitilgan bo'lsa.
14 – 17 ball	Savolga nazariy jihatdan to'g'ri va ijodiy yondoshgan holda ilmiy qarashlar bilan ifodalangan, lekin ularning mohiyatini, xususiyatini, u bilan bog'liq tushunchalarni hamda ta'sir etuvchi omillarni bayon etishdagi ma'lumotlar yetarlicha bo'lmasa, mustaqil fikr-mulohazalar yuzaki axborotlar bilan cheklangan bo'lsa.
11 – 14 ball	Savol mohiyatini yuzaki (yoki qisman) ochib bersa, savol bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar haqidagi ma'lumotlar yoritilmagan bo'lsa yoki noto'g'ri yoritilsa, shuningdek, shaxsiy fikr-mulohazalar bayon etilmagan bo'lsa.

0-11 ball	Savolga nazariy jihatdan javob bermasa yoki asossiz, tegishli bo'lmagan ma'lumotlar bilan ifodalagan bo'lsa hamda ularga yetarlicha izoh bermagan bo'lsa.
-----------	---

**Stajyor tadqiqotchi hamda doktoraturaga talabgorlar uchun suhbat
bo'yicha baholash mezonlari:**

Maksimal – 100 ball.

Ushbu talabgorlarga 5 ta savoldan iborat bilet tayyorlanadi. Har-bir savolga maksimal 20 ball qo'yiladi va quyidagi mezonda baholanadi.

5-savol (maks – 20 ball)	Mezon uchun talablar
17 – 20 ball	Savolga nazariy jihatdan to'g'ri va to'liq ma'lumotlar bilan ijodiy yondoshgan holda, ilmiy qarashlar bilan ifoda etilgan javob keltirilgan hamda mustaqil fikr-mulohazalar bilan boyitilgan bo'lsa.
14 – 17 ball	Savolga nazariy jihatdan to'g'ri va ijodiy yondoshgan holda ilmiy qarashlar bilan ifodalangan, lekin ularning mohiyatini, xususiyatini, u bilan bog'liq tushunchalarni hamda ta'sir etuvchi omillarni bayon etishdagi ma'lumotlar yetarlicha bo'lmasa, mustaqil fikr-mulohazalar yuzaki axborotlar bilan cheklangan bo'lsa.
11 – 14 ball	Savol mohiyatini yuzaki (yoki qisman) ochib bersa, savol bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar haqidagi ma'lumotlar yoritilmagan bo'lsa yoki noto'g'ri yoritilgan, shuningdek, shaxsiy fikr-mulohazalar bayon etilmagan bo'lsa.
0-11 ball	Savolga nazariy jihatdan javob bermasa yoki asossiz, tegishli bo'lmagan ma'lumotlar bilan ifodalagan bo'lsa hamda ularga yetarlicha izoh bermagan bo'lsa.

FOYDALANILADIGAN ASOSIY ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent O'zbekiston, 2011 y
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. – Toshkent O'zbekiston, 2020-y
3. Karimov I.A, Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch Toshkent: - Ma'naviyat 2008 y
4. Тўхтабоев А.Т. Маъмурий менежмент. – Тошкент: Молия, 2003. – 171 б.
5. M.Abdullaeva, Asqarova O'.M.Xayitboev.Ta'lim tarixi-T.Muharrir 2014
6. Mavlonova R., To'raeva O., Xoliqberdieva K. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2001.
7. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2015 y.
8. Asqarova O'.M., Hayitboev M., Nishonov S. – T.: Talqin, 2008.

9. Vohidova N.X., Mirzaeva F.O. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Sano- standard. 2022 y
10. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
11. Ishmuxammedov.R.J va boshqalar. Tarbiyada innavatsion texnologiyalar.T.: Istedod jamg‘armasi -2010 y.
- 12.Ochilov.M. Oily maktab pedagogikasi.T.: “Oqituvchi” 2007 y.
- 13.Mavlonova R. Ijtimoiy predagogika.O‘quv qo'llanmaT. Istiqlol 2009
14. Ziyomuxammedov B. Pedagogika. – T.: Turon-Iqbol, 2006.
15. Xoshimov.K, Nishonova S. Pedagogika tarixi. –T. :2005 y.
16. Sultonova.G.A. Pedagogic maxorat.O‘quv qo‘llanma. TDPU. T.2005 y
17. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.
18. Ismoilova Z. Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar. – T.: Fan, 2001.
19. Ochilov M. Muallim qalb me’mori. – T.: O‘qituvchi, 2001.
20. Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
21. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011.
22. Volkov G.N., Baubekova G.D. Etnopedagogika. – T., 2000
23. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. – T.: O‘kituvchi, 1993.
24. Shodmonova SH. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – T.: TDPU, 2004.
25. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: Tib-kitob, 2010.
26. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar/ – T.: Fan va texnologiya, 2010.
23. Xasanboyev. J va boshqalar. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. T. Fan-2006-y.
- 24.Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.
- 25.. Pedagogika nazariyasi va tarixi.M.X.To‘xtaxodjayevnanning umumiy taxriri ostida. ”Iqtisod-moliya”, 2009-y.
26. Madiyarova S.A. Pedagogik texnologiya va pedagogic maxorat.-T.: ”Iqtisod-moliya” 2009-y.
27. To‘xtaxodjaeva M.X. va boshqalar Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi.– T.: “IQTISOD-MOLIYa”, 2007.

Internet saytlari:

1. [www. ziynet.uz](http://www.ziynet.uz).
2. www. edu.uz.
3. www. google.uz.
4. www. turklib.uz.
5. www. mirknig.ru.
6. www. pedagog.uz.
7. www. inter-pedagogika.ru.
8. www. pedsovet.org.

9. www.pedagog.uz
10. www.apkpro.ru/content/view
11. www.prometeus.nsc.ru/contents/books/slasten
12. www.relarn.ru/conf/conf2007
13. <http://vilenin.narod.ru/Mm/Books/>
14. <http://www.allmath.ru/>
15. <http://www.ziyonet.uz/>
16. <http://window.edu.ru/window/www.astronet.ru>